

**ADABIYOTIMIZ BUYUK VAKILI BO'LGAN ALISHER NAVOIY
IJODIDAN BAHRAMAND BO'LGAN BERDAQ**

Jo‘rayeva Gulshakar Tillo qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti 201-gurux
talabasi

E-mail:gulijorayeva877@gmail.com

Muborro Mavlonovna Raxmonova

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti tyutori

ANNOTATSIYA

Maqolada Alisher Navoiy she’riyatining Berdaq she’riyati bilan bog‘liq jihatlari, komil inson namunasi sifatida, bu ikki shoirlarning adabiyotdagi asarlardagi chizmalari, adabiyotimizdagi o‘rni haqida fikir mulohaza yuritamiz.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Berdaq, she’rlari, islohotlarda adiblar hayoti va ijodi.

ANNOTATION

In the article, we reflect on the aspects of Alisher Navoi's poetry related to Berdaq poetry, as an example of a perfect person, the drawings of these two poets in the works of literature, their role in literature.

Key words: Alisher Navoi, Berdak, Lions, life and work of writers in reforms.

АННОТАЦИЯ

В статье мы размышляем об аспектах поэзии Алишера Навои, связанных с поэзией Бердака, как образцом совершенного человека, о рисунках этих двух поэтов в произведениях литературы, о их месте в нашей литературе.

Ключевые слова: Алишер Навои, Бердак, Львы, жизнь и творчество писателей в реформах.

Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz. Shavkat Mirziyoyev.²⁸

Navoiy va Berdaq ijodida o‘xshlik taraflari bilan hamda har ikkalasi hamadolat haqida sheriyatda va asarlarida o‘zining xalqparvar qarashlarini bizning yodimizga tushadi. Navoiy deganda ko‘z o‘ngimizda ajib bir tasurotlar Navoiyni ulug‘vor bir siymo sifatida gavdalantiradi. Navoiy shoirlar sulton, olim, din peshvosi,adolatli davlat arbobi, faylasuf, viyorli bir shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Berdaq deganda esa yurtning odil kishisi va xalqparvar shoir, mehribon ota, vatan xajrida to‘lg‘ongan shaxs sifatida bizga malum bo‘ladi. Bu ikki buyuk shoirlar shaxsiyati bir biriga shoirlilik va davlat ishlarini yuritishdagi qarashlari, xarakter jihatidan juda yaqin bo‘lib ikkisi ham go‘yo bir maqsad va bir g‘oyani ilgari surgandek bizni nazarimizda. Navoiy va Berdaq doimo bir biriga ijodiy tarafdan yaqinligi sheriyatda yaxlit fikirligi bilan yonma-yon turadi. Avvalo Navoiy hayoti va ijodiga qisqa to‘xtalib o‘tsak.

Alisher Navoiyning muhabbatni tarannum etuvchi otashin tug‘yonlari bilan bog‘liq g‘azallari uning yigitlik davrida yozilgan. “Bunga uning «Ilk devoni»ga kiritilgan, xalq orasida «Qaro ko‘zum», «Kelmadi» «Munojot» nomlari bilan mashhur bo‘lgan va kuylanadigan g‘azallari yaxshi misol bo‘la oladi. Bu kabi she’rlarida shoir pok va yuksak ishqiy kechinmalarni baland ehtiros va falsafiylik bilan ifodalab bera olgan. Uning «Topmadim» radifli g‘azali ham shu davrda, aniqrog‘i, Mashhaddan Hirotga qaytib, shaxsiy turmushini izga solish taraddudida yurganda, lekin uning moddiy jihatdan nochor ahvoldaligi tufayli oila qurishi qiyinlashgan, Sulton Abu Said esa uni ta’qib qilgan paytda yozilgan bo‘lib, uning har bayti yurakni tirnaydi. Alisher Navoiyning ishqiy she’rlarini faqat bir sub’ektga qaratilgan, deyish qiyin. U hayotga keng nigoh bilan qarab, barcha go‘zalliklarni nazokatli tuyg‘ularni qadrlagan, noyob so‘z va iboralar bilan qalbdan ifodalay bilgan.

²⁸ www.pezident.uz Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni ochilishidagi nutqidan 20.05.2020

Lekin hayot qiyinchiliklari va ziddiyatlari orqasida o‘z orzu-umidlariga yetisha olmagan shoir o‘zining insoniy norozilik tuyg‘ularini olovli she’riy satrlarda bayon etadi. Alisher Navoiyning ishq bilan bog‘liq tasvirlari rang-barang va boy bo‘lib, biz unda inson hayoti va holatining cheksiz ko‘p qirralarini-shodlikni ham, xafachilikni ham, takrorlanmaydigan lahzalarni ham, har kun, har soatda yuz beruvchi ko‘ngilsizliklarni ham ko‘ramiz. Zotan o‘zbek she’riyatida inson dardi va hasratlarini, o‘z sevgilisiga talpinishlarini Navoiydan o‘tkazib ifodalagan shoirni topish qiyin. Alisher Navoiyning ishqiy mavzuda yozgan she’rlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ulardagи ko‘p g‘oya va timsollar, tasviriy detallar an’anaviy xarakterga egaligi bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi.

Yuqoridagi Navoiy ijodiga hamohang fikr yuritgan Berdaq ijodida lirik she’rlarida namoyon bo‘ladi, dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18-19-asrlardagi ijtimoiy hayoti o‘z ifodasini topgan. U o‘z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Berdaq ham Navoiy ijodida uchraydigan uslublardan keng foydalanib o‘z asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Alisher Navoiy kabi xalqchillikni Berdaq ijodida ham uchratamiz ya’niy mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzu sifatida sherlarida namoyon bo‘lganligi uning quydagi sherlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Berdaqning “Bo‘lgan emas”, “Soliq”, “Bu yil”, “Umrim” va boshqa ko‘plab sherlarida namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy kabi xalq uchun adolatli bo‘lish g‘oyalarni izchil davomi sifatida Berdaq qarashlarida Navoiydan olgan bazi qarashlarni kuzatishimiz, sheriyatida ham Navoiyga xos uslublarni hayotiy tarizda qoraqalpoq xalqi turmush tarzidan olgan xolda shoir haqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchuy fidokor kurashchilarni orzu qilgan. O‘zining sherlarida “Xalq uchun”, “Menga kerak” va boshqa mavzularda ko‘plab bitiklarni yozib kuya solgan. Tarixiy mavzudagi “Avlodlar”, “Omongeldi”, “Azadosbiy”, “Ernazarbiy” asarlarida shoir xalq qahramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdoqning “Avlodlar” asari tarixiy voqealar salnomasi bo‘lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi fikrlari bayon qilinadi. Berdaq ba’zi ta’magir ruhoniylarning

kirdikorlarini fosh etib “Yaxshiroq”, “Shekilli” kabi sherlarida va boshqa asarlarida yozadi. Ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, ma’rifat cho‘qqilarini egallashga chaqiradi o‘zining “O‘g‘limga”, “Ahmoq bo‘lma” va boshqalar sherlarida ham ko`plab pand nasixatli tarizda muammolarni yoritadi.

Navoiy kabi asarlarida o‘zining she’riy mushohadalari va hayotga qarashlarida Berdaq mehnatkash xalqning baxtiyor yashashini orzu qildi. Xalqni baxtli qilish haqida o‘ylar ekan, Allohdan madad so‘rab quydagи “Yordam ber” sheri orqali, baxt haqida fikr yuritadi. “Izladim” sheri orqali esa odil podshoni orzu qiladi. “Kerak” sheri bilan baxtiyor yashaydigan jamiyat qurilishiga umid qiladi. Berdaq ijodi xalq og‘zaki adabiyoti an’analariga yaqin turadi. Ijodi serqirraligi, asarlarining g‘oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqolpoq adabiyoti tarixida asosiy mavgeni egallaydi. Uning ko‘pgina asarlari o‘zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan.

Xulosa o‘rnida ikki buyuk shoirlar she’riyati yakdillik, insoniylik qahramonlik, vatanparvarlik, odillik,adolat, mehir muruvat kabi insoniy fazilatlarning ezguliklar bilan hamohang tarizda she’riyatida va asarlarida yoritib bergen Navoiy va Berdaq siymolari mangu barhayot bo‘ladi. Navoiy va Berdaq kabi ijodkor ajdodlarimizni yanada ko‘proq bilishimiz uchun bugun davlatimiz tomonidan sharoitlar imkoniyatlar keng ko‘lamda yaratilmoqda. Shu jumladan poytaxtimizda ham bir qator ishlar amalga oshrilib buyuk shoirlarimiz adiblarimiz nomini abadiylashtrish uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi fikrimiz tasdig‘i sifatida keltirsakda: 2017-yil 3-fevral kuni mazkur boqqa tashrif chog‘ida shirlarimiz hamda adiblarimizni nomini abadiylashtrish begilangan edi. Shu yili 18-aprelda davlatimiz rahbari tomonidan tegishli qarori qabul qilinib, xiyobonning me’moriy-g‘oyaviy loyihasi ishlab chiqilgan edi.

O‘tgan yillar mobaynida qurilish va obodonlashtirish ishlari yakunlanib, 8 gektardan ziyod maydonda Adiblar xiyobonining yaxlit me’moriy ansambl yaratilib bu ansanbilda barcha shoirlar, adib ajdodlarimiz haykallari barpo etildi. Adiblar xiyobonini g‘oyaviy-badiiy jihatdan yanada boydi. Xiyobonda Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Berdaq, Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Avloniy, Cho‘lpon, Qodiriy,

To‘lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Aleksandr Faynberg singari atoqli shir va yozuvchi adiblar xotirasiga bag‘ishlangan yangi yodgorlik majmualari barpo etildi. So‘zimning oxirida Alisher Navoiy va Qoraqalpoq xalqining adiblaridan biri Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘lining ijodlarini va hayot yo‘llarini chuqr o‘rganmog‘imiz, yoshlarimiz o‘rtasida keng targ‘ib qilish ishlarini yanada ko‘paytirishimiz kerak. Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan Navoiydan ruxlangan va ijodiga hamohang ijod qilgan Berdaq hayoti va ijodini targ‘ib qilishda inovatsiyalardan keng foydalanib Berdaqning she’rlarini yoshlar ishtirokida zamonaviy tarzda kuylanishini, asarlaridan sahnalashtrilgan qisqa video lavhalarni tayyorlash hamda kino filmlar yaratish orqali adibning faoliyatini yoritsak ayni maqsadga muvofiq bo‘ladi deb bilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Manba <https://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>
2. www.ziyo.uz
3. B.Qurbanboyev Berdaq va o‘zbek adabiyoti, T., 1986.
4. www.pezident.uz Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni ochilishidagi nutqidan 20.05.2020
5. www.Prezident.uz
6. www.gazeta.uz

